



muloqot bo'yicha maxsus mavzular kiritilishi, baholash mezonlarida o'quvchilarning bu boradagi o'sishi ham aks ettirilishi lozim. Tavsifa sifatida, chet tilini o'rganuvchilarni imkon qadar ko'proq haqiqiy muloqotga jalb qilish, xorijiy hamkor maktab yoki universitetlar bilan talaba almashinuvi dasturlarini yo'lga qo'yish muhimdir. Zero, faqat sinfdagi nazariy bilim bilan chegaralanib qolmasdan, real hayotiy muloqotda ishtirok etgan o'quvchigina o'zida haqiqiy madaniyatlararo kompetensiyani kamol toptira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alptekin, C. (2002). *Towards intercultural communicative competence in ELT*. ELT Journal, 56(1), 57–64.
2. Byram, *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters. 1997. files.eric.ed.gov.
3. Deardorff, D. K. *Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization*. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266. 2006. welcomm-europe.eu.
4. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. *An Introduction to Functional Grammar* (3rd ed.). London: Arnold. 2004.
5. Kramsch, C. *Language and Culture*. Oxford: Oxford University Press. 1998
6. Otamuratov, S. *Globallashuv va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi*. [O'zbekistonda globallashuv jarayonida ma'rifiy integratsiya masalalariga doir maqola]. 2016.
7. O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li. (2025). **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI**. Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(1), 470-475.
8. Ramziddin Tursunov. (2025). **IJTIMOYIY ONG VA MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI**. Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 36-40.

YETTINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich,

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Abdusamatova Gulshoda Kamoliddin qizi

Namangan davlat pedagogika institute 2 kurs magistranti

Annotatsiya: Musiqa savodi, qo'shiq kuylash ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalarga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Qo'shiq o'rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko'p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar o'tiladi. O'quvchilar, o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o'rganadilar. Mumtoz ashulalar kuylab, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

Tayanch iboralar: o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy uslublari, mutatsiya, vokal – xor ishlari, musiqa tinglash, musiqa savodi, qo'shiq kuylash.

ЗАДАЧИ И СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКЕ В СЕДЬМОМ КЛАССЕ

Аннотация: При реализации музыкальной грамоты, пения и слушания музыки лучше опираться на знания и умения, полученные в предыдущих классах, и жизненный опыт. Методика обучения пению в 7 классе не сильно отличалась от общепринятой. При выборе музыки преподаются более сложные по содержанию произведения. Учащиеся знакомятся с узбекскими народными песнями, макомами, классическими песнями, валла и лапар, местными стилями народной музыки, изучают содержание и историю их становления. Они наслаждаются шедеврами узбекской народной музыки, исполняя классические песни, макомы и классические песни.

Ключевые фразы: узбекские народные песни, макомы, классические песни, валла и лапар, местные стили народной музыки, мутация, вокально-хоровые произведения, слушание музыки, музыкальная грамотность, пение.



TASKS AND CONTENT OF MUSIC TEACHING IN THE SEVENTH GRADE

Abstract: In the implementation of musical literacy, singing and listening to music, it is better to rely on the knowledge and skills acquired in the previous grades and life experience. The methods of teaching singing in the 7th grade did not differ much from the general methods. When choosing music, more complex works are taught in terms of content. Students get acquainted with Uzbek folk songs, maqoms, classical songs, walla and lapar, local styles of folk music, study the content and history of their structure. They enjoy the masterpieces of Uzbek folk music by singing classic songs, maqoms, and classical songs.

Key phrases: Uzbek folk songs, maqoms, classic songs, walla and lapar, local styles of folk music, mutation, vocal - choral works, listening to music, musical literacy, singing.

Kirish

7 - sinfda musiqa o’qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumilashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi qo’shiqlarni mustaqil o’rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv qatnashishga o’rgatib borish ishi nihoyasiga yetadi.

Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o’tadi. Xalq qo’shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining ma’naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo’lishlari va mustaqil fikr yuritish olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, musiqani tuzilishi, musiqa adabiyot savodi bilan, yangi qo’shiqlar bilan tanishtirish, ularni hayotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o’rgatish nihoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o’quvchilarini dunyo qarashi rivojlangan bo’ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo’ladi. Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqa doir referatlar, sinf burchaklar, tadbirlar o’tkazish va ko’rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo’ladilar. O’qituvchi o’quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib musiqa san’atiga doir vazifalar topshirishi lozim. Lekin vokal - xor ishlarida, qo’shiq o’rgatish, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlari ehtiyoq qilish, metodik to’g’ri yo’llanma berish kerak. Ba’zi paytlarda, bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taklif etib, doktorga farzandining sog’ligi haqida murojaat qilishni taklif qilish lozim. Chunki, 7-sinfda bolalarda mutatsiya davri boshlanadi.

Mutatsiya davrigacha o’g’il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o’xshash bo’lib, ular bir-biridan uncha farq qilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o’zgarib, o’g’il bolalarda ovoz registri jihatidan bir oktava pasayib, yo’g’onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o’z o’rnida qolib, ovoz kuchi, tembrining mayinligi deyarli saqlanib qoladi. Shu boisdan, o’g’il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o’tadi. Natijada ba’zi o’g’il bolalar, ashula aytganda sozga tusholmay qiynaladilar. Ba’zilar esa kuchanib kuylaydilar. Bu davrda o’g’il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovozga, qiz bolalar ovozi esa balog’atli xotin-qizlar ovoziga asta-sekin o’ta boshlaydi. O’g’il bolalar tomogida ovoz boylamlari yo’g’onlashadi, qizaradi, shishlar paydo bo’lishi mumkin. Natijada diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og’irlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo’ladi. Mutatsiya davrida o’g’il va qiz bolalarga ashula o’rgatish mas’uliyat talab etadi. Qo’shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib dars davomida, ularning ovozlari asrab-avaylab o’rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o’zgarishlar paydo bo’ladi. Emotsional uyg’onishlar, organizmdagi garmonik o’zgarishlar darsga nisbatan qiziqishni pasayishiga sabab bo’ladi. Bu davrda o’qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog’lab o’tishi, uning vositasida axloqiy go’zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog’lab olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vokal-xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalarga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Qo’shiq o’rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko’p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo’lgan asarlar o’tiladi. O’quvchilar, o’zbek xalq qo’shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o’rganadilar. Mumtoz ashulalar kuylab, maqomlar kuylab, o’zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

Qo’shiq o’rgatish jarayonida o’qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqida qisqa qiziqarli obrazli kirish so’zi, asarning janri mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o’tkazishi muhim rol o’ynaydi. Yetti yillik



o‘qish davrida, musiqa sohasida ish olib borish natijasida, o‘quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo‘lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televideniya orqali, musiqa darslarida, kontsertlarda mehr bilan tinglaydigan, badiiy havaskorlik to‘garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo‘lib yetishadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musiqa madaniyati darsida o‘qituvchi kuylash uchun qulay yo‘llarni izlashi lozim. Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o‘rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o‘zgarish ro‘y beradi. Buni hisobga olib, qo‘shiqni ovoz partiyasini ikki ovozga bo‘lish lozim. Yoki ovozlarni trasportirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim.

Yettinchi sinf o‘quvchilari ovoz diapazoni birinchi ovozlarda ($do_1 - mi_2$) - 2-ovozlarda esa ($si_{kich} - re_2$)gacha bo‘ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to‘g‘ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo‘shiqlar qaxramonona, lirik, estrada, o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan bo‘lib, o‘quvchilarda o‘rgatishga qiziqish uyg‘otish lozim. Ba’zi bir qo‘shiqlarni solist yordamida ham o‘rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. Yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o‘lchovlar, dinamik belgilar, paralel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to‘xtab o‘tib musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo‘shiqlarlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o‘zbek xalq qo‘shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o‘tadi.

XULOSA

Yettinchi sinfda diapazon qisqarib, yuqori paradalarda kuylash og‘irlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo‘ladi. Mutatsiya davrida o‘g‘il va qiz bolalar ashula o‘rgatish mas’uliyat talab etiladi. Qo‘shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib dars davomida ularning ovozlari asrab – avaylab o‘rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Emotsional uyg‘onishlar, organizmdagi garmonik o‘zgarishlar darsga nisbatan qiziqishini pasayishiga sabab bo‘ladi. Bu davrda o‘qituvchi musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog‘lab o‘tishi, uning vositasida ahloqiy go‘zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog‘lab olib borishi lozim.

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. O. Ibrohimov, X. Nurmatov. “Umumiy ta’lim maktablarini 7-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma” T. 1994y.
2. O. Ibrohimov. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” T. 1994y.
3. O.Fayziev va boshqalar. O‘quvchilarda musiqiy nafas tarbiyasini shakllantirish yo‘llari T. 1992y.
4. O. Ibrohimov va boshqalar. “Ettinchi sinf uchun musiqa darsligi” T. 2002y.
5. Shokirxanov, B., & Axmedova, E. Z. (2025). RUBOB PRIMANING TUZILISHI VA IJROCHILIK HOLATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 438-440.
6. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.
7. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorxon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.
8. Sayfiddinovich, A. B. (2025). Dirijorlik fani haqida. *Research Focus*, 4(ScECIAL Issue 3), 222-233.
9. Axmedov, B., & To‘lanova, M. (2025). RITMIK CHIZGILAR VA TUZILISHLAR HAMDA BADIY OBRAZLAR YARATISH ORQALI BOLALAR TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 447-450.
10. Toshmatov, G. (2025). YEVIROPA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIM VA UNGA O’QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. *Research Focus*, 4(3), 81-84.
11. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA’LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 491-493.
12. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM BO’YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Research Focus*, 4(ScECIAL Issue 3), 244-252.



13. Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.
14. Axmedov, B., & Muxammatova, G. (2025). MUSIQA MASHG ‘ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 371-375.
15. Shokirxanov, B., & Zarifxonova, D. (2025). MUSIQA TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA KO‘P OVOZLI IJRONING DIDAKTIK AHAMIYATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 510-512.
16. Axmedov, B. (2024). AN‘ANAVIY MUSIQA IJODIYOTINING AKUSTIKA VA LAD XUSUSIYATLARI. *Nordic_Press*, 5(0005).

УДК 821.161.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ

Нарзуллаева Наима Абдуллаевна,
преподаватель кафедры Русского языка и литературы
Наманганский государственный университет
ORSID ID: <https://orcid.org/0009-0003-2322-7603>

Аннотация. В статье рассматривается о применение инновационных технологий для повышения литературной компетентности студентов-филологов в высших учебных заведениях. Подчеркивается роли использования инновационных технологий в образовательном процессе, их значение для формирования и развития литературной компетентности будущих филологов. Особое внимание уделяется роли литературной компетентности как важнейшего компонента профессиональной подготовки студентов- филологов, обеспечивающего их способность к глубокому анализу художественных текстов, развитию критического мышления и творческих навыков.

Ключевые слова: инновационные технологии; литературная компетентность; студенты-филологи; образовательный процесс; профессиональная подготовка; творческое мышление; анализ художественного текста.

USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING THE LITERARY COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS

Naima Abdullaevna Narzullaeva,
Lecturer, Department of Russian Language and Literature
Namangan State University
ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-2322-7603>

Abstract. The article examines the use of innovative technologies to enhance the literary competence of philology students in higher educational institutions. The role of innovative technologies in the educational process and their significance for the formation and development of literary competence among future philologists are emphasized. Special attention is given to the role of literary competence as a key component of the professional training of philology students, ensuring their ability to conduct in-depth analysis of literary texts, develop critical thinking, and foster creative skills.

Keywords: innovative technologies; literary competence; philology students; educational process; professional training; critical thinking; creative skills.

FILOLOGIYA TALABALARINING ADABIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Naima Abdullaevna Narzullaeva,
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi